



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI
O‘ZBEK VA RUS TILLARI KAFEDRASI HAMDA
YEVROPA VA TURKIY TILLAR KAFEDRASI**



**TASHQI SIYOSIY VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR UCHUN
KADRLAR TAYYORLASHDA TIL TA’LIMI VA TARJIMA MASALALARI**

**(ЯЗЫКОВОЕ ОБУЧЕНИЕ И ВОПРОСЫ ПЕРЕВОДА ПРИ
ПОДГОТОВКЕ КАДРОВ ДЛЯ ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИХ И
ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ) MAVZUSIDAGI XVI
AN’ANAVIY ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

TO‘PLAMI

2026-YIL 28-MART

TOSHKENT – 2026

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O‘zbek va rus tillari kafedrası hamda Yevropa va turkiy tillar kafedrası tomonidan 2026-yil 28-martda o‘tkazilgan **“Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta’limi va tarjima masalalari”** mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami JIDU Ilmiy muvofiqlashtiruvchi kengashning 2026–yil iyundagi majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

“Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta’limi va tarjima masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami // – Toshkent: JIDU, 2026. – 275 bet.

Mas’ul muharrir:

O‘zbek va rus tillari kafedrası mudiri, dotsent
Yevropa va turkiy tillar kafedrası mudiri,
dotsenti, f.f.n
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim ofisi boshlig‘i, s.f.n.

M.Abduraxmanova

V.Mamatkasimova

M. Siddiqova

Taqrizchilar:

G.S. Kurbonova – O‘zMU Fransuz filologiyasi kafedrası professori v. b., (DSc)
A.X.Aripova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiyaning maqolalarini tahlil qilish va chop etishga tavsiya etish uchun tahririyat–noshirlik guruhi:

Sh. Sh.Xudaykulova – O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsent v.b., f.f.f.d.(Phd)

Sh. U.Normatova – O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.



MUNDARIJA

<u>SUN’IY INTELLEKT TIL TA’LIMIDA: CHATGPT IMKONIYATLARIDAN OQILONA FOYDALANISHNING METODIK YO’LLARI</u>	7
SH.U.NORMATOVA (JIDU)	
<u>NEMIS TILI TA’LIMIDA MADANIY KOMPONENTNI RIVOJLANTIRISHDA ADABIYOTNING ROLI</u>	13
G.R.ASATOVA (JIDU)	
<u>МЕЖПРЕДМЕТНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЮРИСПРУДЕНЦИИ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩЕГО ЮРИСТА</u>	19
Н.Э.ШАРИПОВА (УМЭД)	
<u>OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA IKKINCHI XORIJIIY TILNI O’QITISH SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR</u>	27
K.Q.ISTAMOVA (JIDU)	
<u>O’ZBEKISTONDA CHET ELLIKLARGA TURK TILINI O’QITISH USULLARI VA TA’LIM JARAYONIDA MUAMMOLAR</u>	32
N.SH.XODJAYEVA (JIDU)	
<u>O’ZBEK TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BADIY MATNDAN FOYDALANISHNING YANGICHA USULLARI</u>	43
M.X.SADULLAYEVA (JIDU)	
<u>ADABIYOT DARSLARIDA TABIAT TASVIRIGA OID MATNLARNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI O’QITISH</u>	49
M.F.FOZILOVA (O’zDJTU)	
<u>DIPLOMATIK MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MADANIY RESURSLARNI O’RGATISHNING AHAMIYATI</u>	58
M.D.ABDURAXMANOVA (JIDU)	
<u>TALABA–YOSHLARDA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY USLUB VA MILLIY SHE’RIYATNING O’RNI</u>	64
SH.S.XUDAYKULOVA (JIDU)	
<u>К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО–КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ–МЕЖДУНАРОДНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА</u>	70
Г.М.РАХМАТУЛЛАЕВА (УМЭД)	



<u>O'ZGARUVCHI DUNYODA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI VA ZAMONAVIY TA'LIM TRENDLARI</u>	76
A.X.ARIPOVA (JIDU)	
<u>QADRIYATLAR VOQEALANISHINING DISKURSIV MODEL</u>	83
G.R.KOMILOVA (ToshDO'TAU)	
<u>ЯЗЫКОВАЯ ПОДГОТОВКА КАК ФАКТОР УСПЕХА В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПОЛИТИКЕ</u>	91
A.B.ATABEKOVA (УМЭД)	
<u>LOTIN TILINING DIPLOMATIYA SOHASIDA QO'LLANISH XUSUSIYATLARI</u>	95
SH.A.XASANOVA (JIDU)	
<u>O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA MILLIY REALIYALARNING LINGVODIDAKTIK IMKONIYATLARI</u>	102
D.D.SAYFULLAYEVA (JIDU)	
<u>ДИСКУРСИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЧИ СТУДЕНТОВ, ИЗУЧАЩИХ РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	105
B.B. МЯКОТА (УМЭД)	
<u>ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА У СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	112
T.D.ПОЛАТОВА (УМЭД)	
<u>СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА</u>	120
P.Ш.АБДУМУМИНОВА (УМЭД)	
<u>NEMIS TILI YO'NALISHI TALABALARINING MAMLAQATSHUNOSLIKKA OID BILIMLARINI BADIY MATNLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI</u>	126
A.P.NARMATOVA (JIDU)	
<u>РОЛЬ ГЛАГОЛЬНЫХ КОНСТРУКЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ</u>	130
Ю.Б.ЮЛДАШБАЕВА (УМЭД)	
<u>ONA TILI TA'LIMIDA O'QIB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLARNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI</u>	134
M.RASULOVA (ToshDO'TAU TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA TIL ME'YORI VA VARIANTLILIK</u>	142
M.M.ABIDOVA (O'zMU MAGISTRANTI)	



<u>DAVLAT TILI “YUMSHOQ KUCH” QUROLI SIFATIDA</u>	151
S.D.SALIXOVA (JIDU TALABASI)	
<u>GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA HUQUQIY NEOLOGIZMLAR VA ULARNING QO‘LLANISHI</u>	156
L.M.TURSUNOVA (JIDU TALABASI)	
<u>FERDINAND DYUSHENNING “QAMAR” ROMANINI TARJIMA QILISHDA MADANIY EKVIVALENTLIK MASALALARI</u>	162
V.A.MAMATKASIMOVA (JIDU)	
<u>CHET TILINI O‘QITISHDA “HA” VA “YO‘Q” SO‘Z MA‘NOLARINING BERILISHI XUSUSIDA</u>	167
H.K.IMAMOVA (JIDU)	
<u>INSON TANA TAJRIBASI VA UNING MAQOLLARDA AKS ETISHI</u>	172
Q.N.NAZAROV (JIDU)	
<u>ISPAN TILIDA REKLAMA MATNLARIDA LINGVOKULTURAL KODLARNI O‘RGANISH</u>	180
N.A.SAIDOVA (JIDU)	
<u>VIRTUAL TA‘LIM MUHITI ASOSIDA ISPAN TILINI O‘QITISHNING INNOVATSION MODELLARI</u>	185
N.K.XAYRULLAYEVA (JIDU)	
<u>ПЕЙОРАТИВНОСТЬ, ВЫРАЖЕННАЯ ПОСРЕДСТВОМ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКЕ</u>	193
M.K.ZARIPOVA (TerGU)	
<u>МОТИВАЦИЯ И ВАЛЕНТНОСТЬ КАК ФАКТОРЫ РАСШИРЕНИЯ СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ «BEHAVIOUR / ПОВЕДЕНИЕ»</u>	199
L.A.ABDULLAEVA (UMED)	
<u>ISPAN TILIDAGI ILMIY MATNLARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA TERMINOLOGIK MOSLIK VA ANIQLIK</u>	205
N.A.SAIDOVA (JIDU)	
<u>NAVIGATING THE INTERPLAY OF QUALITY EDUCATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT: STRATEGIC IMPERATIVES AND TECHNOLOGICAL INNOVATIONS IN UZBEKISTAN’S PEDAGOGICAL LANDSCAPE</u>	211
N.X.RAXIMOVA, B.A.UMIRZAKOVA (UWED)	
<u>TALABALARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL MATN TAHLILI TEXNOLOGIYALARI</u>	216
O.Q.MO‘MINOVA (O‘zDJTU)	



<u>ZAMONAVIY TA'LIM SHAROITIDA O'ZBEK TILINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR</u>	222
F.R.AZIZOVA (JIDU)	
<u>СТОРИТЕЛЛИНГ КАК ФОРМА ЦИФРОВОГО НАРРАТИВА В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ</u>	227
A.C.KALBAEV (УМЭД)	
<u>TALABALAR TARJIMA FAOLIYATINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH METODLARI</u>	233
N.F.BABAMURADOVA (O'zDJTU TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>SUN'IY INTELLEKT VA YOSHLARNING SIYOSIY ISHTIROKI: RAQAMLI DEMOKRATIYA SHAROITIDA YANGI TENDENSIYALAR</u>	239
S.K.QO'SHIYEVA (УМО'IKTI TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>ИНТЕГРАЦИЯ ПОДГОТОВКИ К DELF В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ФРАНЦУЗСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ: КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД</u>	247
C.Ю.САЙДАЗИМОВА (УМЭД)	
<u>DONALD J. TRUMPNING INAUGURATSIYA NUTQI: SIYOSIY DISKURS VA TARJIMA STRATEGIYALARI</u>	255
A.R.ABDULLAYEV (JIDU)	
<u>RAQAMLI KORPUS TILSHUNOSLIGI VA SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA O'ZBEK TILI: MILLIY KORPUSNI TAKOMILLASHTIRISH VA SINXRON TARJIMA TEXNOLOGIYALARI</u>	262
SH.J.JAHONOV (JIDU TALABASI)	
<u>РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	269
H.Г. БУКРЕЕВА (УМЭД)	

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://esg-library.mgimo.ru/rubricator/tseli-ustoychivogo-razvitiya-tsur/>
2. https://unstats.un.org/sdgs/indicators/Global%20Indicator%20Framework%20after%20refinement_Rus.pdf
3. Цели устойчивого развития – принцип развития на основе социального, экономического и экологического баланса.
4. Йоханнесбургская декларация по устойчивому развитию // <https://esg-library.mgimo.ru/publications/yokhannesburgskaya-deklaratsiya-po-ustoychivomu-razvitiyu/>
5. Зеленая экономика. Глобальное развитие // <https://esg-library.mgimo.ru/publications/zelyenaya-ekonomika-globalnoe-razvitie/>
6. Цели устойчивого развития – принцип развития на основе социального, экономического и экологического баланса // <https://nsdg.stat.uz/publications/29>
7. Цели устойчивого развития в Республика Узбекистан 2025 // <https://nsdg.stat.uz/publications/30>

QADRIYATLAR VOQELANISHINING DISKURSIV MODEL

G.R.KOMILOVA (ToshDO‘TAU)

Annotatsiya. Aksiologvistika – til orqali qadriyatlar voqelanishini o‘rganuvchi zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishi hisoblanadi. Bu borada fanda aksiologvistik modelni tanlash va tahlil qilish tadqiqotni yanada samarali qilishga yordam beradi. Qadriyatning til tizimi, diskurs, mental–kognitiv strukturadagi joylashuvini ko‘rsatuvchi konseptual sxema aksiologvistik model vazifasini bajaradi. Adabiyotlarda diskursiv–pragmatik model deb ham

nomlanib, eng zamonaviy yondashuv sifatida tilga olinadi. Maqolada OAV diskursida ifodalangan qadriyatlar tahlilga tortildi.

Kalit soʻzlar: *aksiolingvistika, qadriyat, aksiolingvistik model, diskurs, mental–kognitiv struktura, konseptual sxema, diskursiv–pragmatik model.*

Annotation. *Axiolinguistics is a modern linguistic field that studies the manifestation of values through language. In this regard, selecting and analyzing an axiolinguistic model contributes to the effectiveness of research. The conceptual scheme that demonstrates the position of a value within the language system, discourse, and mental–cognitive structure serves as an axiolinguistic model. In the scholarly literature, it is also referred to as the discursive–pragmatic model and is recognized as one of the most contemporary approaches. The article examines values expressed in media discourse.*

Keywords: *axiolinguistics, value, axiolinguistic model, discourse, mental–cognitive structure, conceptual scheme, discursive–pragmatic model.*

Qadriyatlar voqelanishining diskursiv modeli qadriyat diskursda qanday ishlab chiqarilishi va ijtimoiy kuch munosabatlarida qanday oʻrin olishini asoslovchi model hisoblanadi. Model elementlari vazifasida reallikni baholash aktlari (good, bad, fair, honorable); nutq strategiyalari, diskursiv pozitsiyalar, ijtimoiy kontekst (institut, ideologiya) olinadi [Bu haqda qarang: Martin, White, 2005].

Qadriyatlar voqelanishining diskursiv modeli orqali qadriyatlarni tadqiq etishda diskursiv–aksiologik tahlilni qoʻllash oʻrinli. Chunki mazkur tahlil usuli ijtimoiy–siyosiy, media va badiiy diskurslardagi qadriyatlarning qanday funksiyalar (ideologik, pragmatik va manipulyativ)ni bajarishini aniqlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, diskursiv tahlil aksiologik ma’noning kommunikativ strategiyalar bilan bog’liqligini ochib beradi; qadriyatlarning til va nutqdagi (diskurs) namoyon bo’lish jarayonini o’rganadi; qadriyatlarning jamiyat aksiosferasidagi o’rnini aniqlaydi.

Qadriyatlar voqelanishining diskursiv modelida matn hamda nutqiy ifodalar qadriyatlarni aks ettiruvchi, saqlavchi, uzatuvchi funksiyani bajaradi va o’zi ham qadriyat hisoblanadi. Matn baholarni translyatsiya qilish bilan birga ilmiy bilish kontekstida baholash obyektiga aylanadi.

Tahlil jarayonida tildagi qadriyat markerlarini aniqlanib, baholovchi so’zlar, metaforalar, emosional birliklar: masalan, “adolatli”, “yo’l qo’yib bo’lmaydigan”, “muvaffaqiyatli” kabilar orqali nutq subyektining munosabati va qadriyat pozitsiyasi belgilanadi.

Tadqiqot obyekti sifatida gazeta.uz saytidagi maqolalar tanlandi. OAV yoki Ijtimoiy tarmoq ayni paytda ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, aksiologik va ekologik ongga ta’sir qiluvchi eng kuchli maydon sanaladi. Qadriyatlar voqelanishining diskursiv modeli quyidagi bosqichlarda ish olib boradi:

1. Matndagi dominant mavzuni aniqlash. 2. Matndagi qadriyat va aksqadriyatni belgilash. 3. Diskursiv strategiyalar (legitimatsiya, delegitimatsiya, baholash, normalizatsiya, emotsionalizatsiya). 4. Til birliklari orqali mazkur strategiyalarni dalillash. 5. Qadriyat indikator (pozitiv/negative baho)larini ajratish.

O‘zbekistonlik 11 yoshli Yasmina Husniddinova Britain’s Got Talent hakamlarini lol qoldirdi (video)

Yosh vokalist Yasmina Husniddinova Britain’s Got Talent iste’dodlar shousida O‘zbekiston nomidan ishtirok etgan ilk qatnashchi bo’ldi. U eng murakkab kompozitsiyalardan biri – Never Enough qo’shig’ini ijro etib, to’rtta “ha” javobini oldi. Hakamlar qizning ovoz boshqarish texnikasini “g’ayritabiiy” deya ta’rifladi.

O‘zbekistonlik 11 yoshli [Yasmina Husniddinova](#) dunyodagi eng mashhur iste’dodlar shoularidan biri – Britain’s Got Talent (BGT) loyihasining 19-mavsumi kastingida ishtirok etdi.

Yosh xonandaning ijrosi ham tomoshabinlar, ham hakamlarning hayratiga sabab bo’ldi. Hakamlar hay’ati a’zolari bunday yosh uchun xos bo’lmagan vokal texnikasini alohida e’tirof etdi.

“Ovoz kuchi va nazorati shunchaki g’ayritabiiy darajada edi. Tabriklayman!” – deya chiqishni izohladi hakam Amanda Xolden.

Uning hamkasbi Alisha Dikson esa ijro dinamikasiga e’tibor qaratdi: “Sen sokin lahzalar va haqiqiy kuchli qismlar o’rtasida yaratgan kontrast menga juda yoqdi. Bu juda oqilona qaror bo’ldi, chunki boshida hammasi nafis edi, keyin esa ovozingni shunchalik go’zal namoyish eta boshladingki, qo’shiq oxiriga kelib shunchaki “parvoz qilding”.

Hakamlar hay’atining boshqa a’zolari, jumladan, KSI ham Yasminaning murakkab yuqori notalarni qanchalik uzoq ushlab tura olishiga qoyil qolganlarini bildirdi. Yakunda maktab o’quvchisi to’rtta “ha” javobini oldi.

O‘zbekistonning Londondagi elchixonasi Yasmina Britain’s Got Talent shousida chiqish qilgan ilk o‘zbekistonlik ishtirokchi bo’lganini [ma’lum qildi](#) va vatandoshlarni uni qo’llab-quvvatlashga chaqirdi.

Yasmina Husniddinova uchun bu katta sahnadagi birinchi muvaffaqiyat emas. 2024-yilda u “Ovoz. Bolalar” birinchi mavsumining eng yorqin yulduzlaridan biriga [aylangandi](#). Ustozi DJ Pilgrim jamoasida ishtirok etgan Yasmina loyiha finalida uchinchi o’rinni egallagan.

Toshkentlik maktab o’quvchisi, shuningdek, Italiyada o’tkazilgan Sanremo Junior 2025 tanlovining Gran-pri sohibasi [hamdir](#).

Endilikda o‘zbekistonlik iste’dod egasi butun dunyo bo‘ylab millionlab tomoshabinlar kuzatib boradigan Britaniya shousining bosh sovrini uchun kurashni davom ettiradi.

Matndagi dominant mavzu Britain’s Got Talent iste’dodlar shousida ilk o‘zbekistonlik bolaning ishtiroki. Matndagi qadriyat va aksqadriyatni quyidagilar tashkil etadi: milliy faxr va identitet, intellektual qadriyat, ya’ni *ovoz boshqarish texnikasi, ovoz kuchi, ijro dinamikasi, murakkab yuqori notalarni qanchalik uzoq ushlab turish*; axloqiy qadriyatlar: hamjihatlik, birdamlik: vatandoshlarni uni *qo‘llab-quvvatlashga chaqirdi.*

2024–yilda u “Ovoz. Bolalar” birinchi mavsumining eng yorqin yulduzlaridan biri; loyiha finalida uchinchi o‘rinni egallaga Italiyada o‘tkazilgan Sanremo Junior 2025 tanlovining Gran–pri sohibasi kabi birliklar muvaffaqiyat, mehnat qadriyatlarini voqelantiradi. Ko‘rish mumkinki, diskursda mehnat qadriyati shunchaki jismoniy harakat emas, balki ijtimoiy–ahamiyatli, ongli va natijaga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida namoyon bo‘lyapti.

Diskursiv strategiyalar bo‘yicha tahlil:

Legitimatsiya strategiyasi: *hakamlar uning ijrosini yuqori baholadi.* Hakamlar institutsional hokimiyat bo‘lganligi uchun Jasminaning yutug‘ini rasman tasdiqlanganini ko‘rsatadi. *O‘zbekiston nomidan ishtirok etgan* shaxsiy darajadan ko‘tarilib, “millat vakili” maqomiga chiqaradi. Ya’ni vatan nomidan ishtirok etish qadriyat sifatida moddiylashadi va ruhlantiruvchi fon beradi.

Delegitimatsiya implisit kontrast usilida ifodalangan: *sahnani larzaga keltirdi* bu lisoniy birlik orqali boshqa ishtirokchilarning darajasini pasaytiradi. Baholash strategiyasi bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak: hissiyot baholangan o‘rinlar: *larzaga keltirdi, ko‘ziga yosh oldi, hayratda qoldi*; bu baholash orqali o‘quvchi voqeani his qiladi; xulqni baholash: *birinchi muvaffaqiyat emas, eng yorqin yulduzlaridan biri, uchinchi o‘rinni egallagan, Gran–pri sohibasi* kabi lisoniy

konstruksiyalar mehnatsevarlik, qat’iyatlilik, harakatchanlik, shijoat singari qadriyatlarni aks ettiradi; matn voqelikni baholash asnosida (*kuchli ovoz, ta’sirli chiqish*) estetik qadriyatlarni shakllantirish vazifasini bajaradi.

Italiyada o’tkazilgan Sanremo Junior 2025 tanlovining Gran-pri sohibasi, Britain’s Got Talent iste’dodlar shousi kabi lisoniy birliklar o’zbek yoshlarining xalqaro sahnadagi muvaffaqiyati normativligi, va buning odatiy holga aylanib borayotganini ko’rsatadi (normalizatsiya strategiyasi).

Matnning asosiy emotsional marker nuqtasi: *sahnani larzaga keltirdi*, ya’ni emotsional metafora qo’llangan. Ushbu metafora diskursda quyidagi ma’nolar uchun xizmat qilgan: *sahna kuchli energiya bilan to’ldi, auditoriya hayojonga tushdi, kuchli effekt yaratildi, sahna dinamikasi yuqori bo’ldi*.

Mazkur diskurs milliy faxr, yosh avlod salohiyati, global muvaffaqiyat, iste’dod va mehnat, ruhlantirish kabi qadriyatlarni shakllantirishga hamda uzatishga xizmat qilgan. “*Iste’dodli yoshlar xalqaro sahnada O’zbekistonni tanitmoqda*” shiori ostida intellektual qadriyatlarning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati isbotlangan.

Qadriyatlar voqelanishining diskursiv modeli qadriyatlarning media, ta’lim, kundalik muloqot orqali qanday uzatilishi va avloddan-avlodga o’tishini tahlil qiladi. Shuningdek, siyosiy nutqni diskursiv-aksiologik yondashuv asosida tahlil qilish nutq egasi qanday qadriyatlarni (vatanparvarlik, erkinlik, xavfsizlik) ilgari surayotgani, bu qadriyatlarni qanday til vositalari orqali taqdim etayotgani va ular orqali auditoriyada qanday emotsional-ta’sirchan effekt hosil qilinayotganini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu modelning o’ziga xos xususiyatlari quyidagilarda mujassamlashgan: qadriyatning ijtimoiy tabiatini aniqlaydi; qadriyat va bahoni real kommunikativ vaziyatlar asosida tahlil qiladi; norma, ideologiya, siyosat bilan bog’liq baholash mexanizmlarini tasdiqlaydi.

Shu bilan bir qatorda, murakkab metodologiya talab qiladi. Chunki aksiologik–diskursiv metodda identifikatsiya shakllanishi jarayoni, diskurslarning individual va guruhviy qadriyatlarni qanday shakllantirishi tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, qadriyatlar til tizimi darajasida faqat nominativ birlik sifatida emas, balki diskurs orqali aktual, kontekstual va ideologik mazmunga ega bo’lgan mazmunviy kategoriya sifatida namoyon bo’ladi. Diskursiv model qadriyatlarning mazmunviy tuzilishi, ularning mental-kognitiv reprezentatsiyasi va kommunikativ–pragmatik funksiyalarini aniqlashda samarali metodologik asos bo’lib xizmat qiladi.

OAV diskursi tahlili qadriyatlarning voqelanishi ijtimoiy kontekst, media strategiyalari, baholovchi vositalar va ideologik yo’nalishlar ta’sirida shakllanishini tasdiqladi. Ayniqsa, diskursdagi baholash mexanizmlari va semantik–aksiologik markazlar orqali qadriyatlarning qayta konseptuallashtirilishi yaqqol kuzatildi. Bu esa diskursiv modelning qadriyatlar dinamikasini tadqiq etishda universal va amaliy yondashuv sifatida o’zini oqlashini ko’rsatadi.

Shu asosda aytish mumkinki, diskursiv model qadriyatlar mohiyatini izohlash, ularning ijtimoiy–madaniy mazmunini rekonstruksiya qilish hamda aksiolingvistik tahlilni chuqurlashtirish imkonini beradi. Kelgusida mazkur yondashuvni turli diskurs turlariga qo’llash, qadriyatlar transformatsiyasini diaxron va sinxron kesimlarda o’rganish tadqiqotning istiqbolli yo’nalishlaridan biri bo’lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Martin J., White P.R. The language of evaluation: appraisal in English. –Great Britain, 2005. – 99 p.



2. Van Dijk, T.A. (1998). Ideology: A Multidisciplinary Approach. London EC2A 4PU, 1988. – 390 p.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphor We Live By. – Chicago University Press, 2003. – 193 p.
4. Vodyanitskaya A., Yaremenko V. What is valuable in the academe: corpus-based analysis// Society. Integration. Education. Proceedings of the International Scientific Conference. Volume II, May 22th –23th, 2020. P. 437–455.
5. Susan Hood. Appraising Research: Evaluation in Academic Writing. –Sydney, 2010. –89 p.
6. Kholmanova, Z. T., & Komilova, G. R. (2021). *The role of zoonyms in the expression of axiological content. Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1–?. <https://doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00876.4>
7. Komilova Gavharoy Ro‘zimovna. (2025). Proverbs as Figurative Expressions of Values (Based on Examples from Uzbek Proverbs). American Journal of Philological Sciences, 5(05), 260–263. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume05Issue05-70>
8. Gavharoy Ruzimovna Komilova. (2022). METHODS OF ANALYSIS OF VALUES REFLECTED IN PROVERBS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(12), 34–43. <https://doi.org/10.37547/ijasr-02-12-05>
9. GAVHAROY KOMILOVA. (2025, май 31). PAREMIOLOGIK BIRLIKLARDA QADRIYATLAR IERARXIYASINING AKS ETISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15558022>